

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

З.Т.Исаева	
«Системный подход к анализу парадигматики и синтагматики»	1438
Г.М.Мамаджанова	
Язык как фактор формирования культурных кодов	1442
V.A.Giyosova	
Reference units for children with glutenomies	1446
З.Ш.Нуридинова	
Функции художественного перевода в контексте межкультурной коммуникации	1449
M. T.Xalilova	
Publitsistik uslubga xos mikromatnlarning funksional-semantik belgilari	1452
Z.H.Ubaydullayeva	
Hissiyotlar ifodalanishida psixofiziologiya va etnik xoslanish	1457
A.A. Shodiyeva	
Presuppozitsiya pragmatikaning asosiy obyektlaridan biri sifatida	1462
S.M.Qurbonova	
Antroposentrik lingvistika tarmoqlari	1466
M.A.Xusanova	
Badiiy nutqda qo'llangan og'zaki nutq unsurlarining vazifalariga doir	1473



UO'K:81 225.4:34

PUBLITSISTIK USLUBGA XOS MIKROMATNLARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK BELGILARI**ФУНКЦИОНАЛЬНО-СМЫСЛОВЫЕ ПРИЗНАКИ МИКРОТЕКСТОВ, ХАРАКТЕРНЫЕ ДЛЯ ПУБЛИЦИСТИЧЕСКОГО СТИЛЯ****FUNCTIONAL-SEMANTIC GAMES OF MICROTTEXTS CHARACTERISTIC OF JOURNALISTIC STYLE****Xalilova Muyassarxon Tolipovna**

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada davrimizning murakkab va dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalarini aks ettiruvchi publitsistik uslubga xos mikromatnlarning funksional o'ziga xos belgilari, boshqa uslub matnlaridan farqlanib turuvchi jihatlari, mikromatnlarning funkcionallashuvini yuzaga keltiruvchi semantik munosabatlarning tizimli tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, bunda ommabop mazmundagi mikromatnlarni tashkil etuvchi qismlar orqali ifodalanadigan turli mazmuniy munosabatlarning matnning tasviriyliigi, ishonarliligi, ta'sirchanligini oshirishdagi bajaradigan vazifalari o'ziga xos vazifalari lisoniy dalillar vositasida tahlil qilib berilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается систематическое изучение функциональных особенностей микротекстов публицистического стиля, отражающих сложные и актуальные общественно-политические проблемы современности, аспектов, отличающихся от других стилевых текстов, а также смысловых отношений, создающих функционализацию микротекстов. С помощью лингвистических доказательств анализируются конкретные функции отношений в повышении наглядности, правдоподобности и эффективности текста.

Abstract

This article is dedicated to the systematic study of the functional characteristics of journalistic style microtexts that reflect the complex and current socio-political issues of our time, aspects that differ from other style texts, and the semantic relations that create the functionalization of microtexts. The specific functions of relationships in increasing the visibility, believability, and effectiveness of the text are analyzed by means of linguistic evidence.

Kalit so'zlar: publitsistik uslub, mikromatn, jamiyat faol a'zosi, ijtimoiy-siyosiy masalalar, ochiq-oshkora munosabat, ratsional-mantiqiylik, hissiy ta'sirchanlik, ekstralingvistik omillar, til vositalari, jamoatchilikka oid, targ'ibot-tashviqot, uyushtiruvchanlik, uslubiy rang-baranglik, bosh maqola, ocherk, reportaj, pamfliert, feleton, adabiy me'yor, stilistik me'or, til madaniyati, dolzarblik, tezkorlik, mantavorlik, mikromatnning semantic tabiati, zamonamiz ilg'or kishilari, tashqi qiyofa, qahramon ichki dunyosi, tasvirlanayotgan obyekt, subyektiv dunyalik, izohlash munosabati, izohlovchi qism, izohlanuvchi qism, egalik subyekt, possetiv subyekt, mavjudlik semasi.

Ключевые слова: публицистический стиль, микротекст, активный член общества, общественно-политические проблемы, открытость, рациональность, эмоциональная чувствительность, экстралингвистические факторы, языковые средства, публика, пропаганда, организация, стилистическое разнообразие, основная статья, эссе, репортаж, памфлет, фельетон, литературный стандарт, стилистический стандарт, языковая культура, актуальность, оперативность, правдивость, торжественность, смысловая природа микротекста, передовые люди современности, внешний облик, внутренний мир героя, изображаемый предмет, субъективная модальность, интерпретативное отношение, интерпретативная часть, интерпретируемая часть, притяжательный субъект, позитивный субъект, сема существования.

Key words: journalistic style, microtext, active member of society, socio-political issues, openness, rationality, emotional sensitivity, extralinguistic factors, language tools, public relations, propaganda, organization, methodological diversity, main article, essay, reportage, pamphlet, literary standard, stylistic standard, language culture, relevance, promptness, truthfulness, solemnity, semantic nature of microtext, advanced people of our time, external appearance, hero's inner world, depicted object, subjective modality, interpretive attitude, interpretive part, interpretable part, possessive subject, positive subject, existence seme.

KIRISH

Publitsistik uslub jamiyat faol a'zosining ijtimoiy-siyosiy hayotga bo'lgan munosabatini ifodalaydi.

Publitsistik nutq, akademik V.Vinogradovning tasnifiga ko'ra, tilning ta'sir etish funksiyasiga ko'ra ajratilgan[6,6].

Funksional stillar sistemasida publitsistik nutqning o'ziga xos tutgan o'rmi, o'z navbatida, publitsistik uslubning boshqa funksional uslublarga munosabati to'g'risida tilshunos M.N.Kojina shunday deb yozadi: «...gazeta janrlariga bog'liq tarzda namoyon bo'ladigan uslubiy rang-baranglik tarqoq holda mavjud bo'lmaydi. Ular umumiy nuqtada birlashadi. Masalan, bosh, ilmiy-nazariy, ilmiy-ommabop maqolalar, taqrizlar, intervyu va boshqalar bayonda tahlil xususiyatlari bilan ajralib tursa ham, ekspressiv ta'sir o'tkazuvchi, publitsistik va baholash momentlari bilan; ocherklar, pamfletlar, felyetonlar badiiylik xususiyatlari bilan ajralib tursa ham, publitsistikligi bilan o'sha uslublardan farqlanadi»[9,188].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'tgan asrning uslubshunoslik, til stillariga doir nazariy fikrlar shakllangan 60-yillardayoq publitsistik nutqni ilmiy jihatdan o'rganishga kirishildi. Xususan, akademik G'Abdurahmonovning stilistik me'yor haqidagi nazariyalarida [2,51], dastlab, publitsistik uslub yozma nutqning bir turi ekanligi va uning xususiyatlari bayoni, A.Shomaqsudov va boshqalarning «O'zbek tili stilistikasi» darsligi, R.Qo'ng'urov va boshqalarning «Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari» o'quv qo'llanmasi[12,67-97], S.Karimovning «O'zbek tilining funksional stillari» o'quv qo'llanmasi, S.Karimovning «O'zbek tilining funksional stilistikasi» monografiyasida[7] publitsistik nutqning uslubiy belgilari, til xususiyatlari, aniqrog'i, leksik-morfologik xususiyatlari haqida keng va atroflicha nazariy ma'lumotlar berilgan.

Funksional uslublar tizimida publitsistik nutqni maxsus o'rganish XX asrning 80-yillarida amalga oshirildi. T.Qurbonovning nomzodlik dissertatsiyasida[10] publitsistik uslubning uslubiy belgilari, til xususiyatlari to'g'risida ilk bor ilmiy xulosalar bayon qilingan.

Keyinchalik A.Abdusaidovning gazeta tili va unda adabiy normaga rioya qilish holatlari haqidagi nomzodlik ishi, gazeta janrlarining tili va uslubiga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasi maydonga keldi[3,4]. Bundan tashqari olim monografiya va bir qancha qo'llanmalarida[5] gazeta tili, matbuot tili madaniyati, matbuotda frazeologik birliklardan foydalanish me'yori, publitsistikning so'zdan foydalanish mahorati haqidagi nazariy qarashlari va ilmiy tahlillarini bayon qilib beradi.

O'zbek uslubshunosligi taraqqiyotida funksional uslublar tizimi va badiiy nutq uslubi bo'yicha alohida shug'ullangan olim S.Karimovning «O'zbek tili funksional stilistikasi» nomli monografiyasida publitsistik uslubning, ekstralingvistik shart-sharoitlari, shu vaqtgacha qilingan ilmiy tadqiqotlarda ommabop nutqning ekstralingvistik omillari alohida tadqiq etilmagani to'g'risidagi mulohazalarini bayon etar ekan, unda til va tildan tashqarida mavjud bo'lgan omillardan foydalanishdagi imkoniyatlarning g'oyatda kengligi, bu esa publitsistikaning hayotga naqadar yaqin ekanligi uning bajarib kelayotgan ijtimoiy vazifasi bilan belgilanishini uqitirib o'tadi. Olim publitsistik uslubning o'ziga xos alohida belgilarini sanab ko'rsatgani holda, *safarbarlik, hamma uchun baravarlik kabi omillarni ham keltirish bilan birga, har bir janrga xos bo'lgan xususiy holatlarning ham mavjudligini*[7,61-62] isbotlab ko'rsatadi. Shu bilan birga, ushbu maqolada publitsistik uslubning boshqa nutq uslublariga bo'lgan munosabati, til xususiyatlari ham tahlilga tortilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'lum bir jamiyatdagi murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, adabiy-tanqidiy mavzulardagi masalalar alohida olingan gaplar orqali ifodalanmay, ma'lum bir kichik mavzuni yoritish atrofida mujassam bo'lgan leksik-frazeologik, morfologik va bir-biriga mazmunan bog'langan sintaktik birliklarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan nutqiy butunliklar yordamida aks ettiriladi. Bunday butunliklar publitsistik nutqqa xos mikromatnlarni vujudga keltiradi.

O'zida ijtimoiy, siyosiy-iqtisodiy hayot masalalarini qamrab oladigan, jamiyat faol a'zosining ushbu ijtimoiy-siyosiy hayotga bo'lgan munosabatini ochiq-oshkora ifodalaydigan, mazmunidan targ'ibot-tashviqot hamda ommaga estetik ta'sir ko'rsatish maqomiga ega bo'lgan gaplar guruhidan iborat bo'lgan mikromatnlar publitsistik nutqqa xos mikromatnlar deb yuritiladi.

Nutq uslublarining tasnifiga omil bo'lib kelgan tilning aloqa, xabar va ta'sir etish funksiyalari ham mikromatnlarda yanada yaqqol ifodalanadi.

Publitsistik uslubga xos mikromatnlarning boshqa turdagi matnlardan ajralib turuvchi o'ziga xos asosiy jihati shundaki, unda ro'y bergan hodisalar va voqeliklarni aks ettirishda, birinchi navbatda, adabiy til qonun-qoidalariga qat'iy amal qilingan holda tuzilsa, ikkinchidan, ushbu murakkab siyosiy mazmundagi ma'lumotlar keng xalq ommasi uchun tushunarli bo'lishligi talab etiladi.

Mikromatnlarda ifodalanadigan mazmun nutq stillarining qaysidir biriga taalluqli bo'ladi. Faslimiz boshlarida ushbu uslubning o'rganilishi yuzasidan bergan fikrlarimizda ta'kidlab o'tganimizdek, ommabop nutqning leksik, morfologik xususiyatlari, ayrim sintaktik belgilari tahlil etilgan. Biz o'rganishimiz davomida, olimlarimizning diqqat-e'tiboridan chetda qolgan muhim jihati: publitsistik nutq matnlarining semantik mundarijasini o'rganishimizda, tasviriy mikromatnlarning o'ziga xos bir maqsadlarda keng ko'lamda qo'llanilganligining guvohi bo'ldik.

Biz ommabop uslubning semantik xususiyatlarini o'rganish davomida publitsistik uslubga xos matnlarda tasvir mazmunini ifodalovchi mikromatnlarni o'rganib, tahlil qilib chiqqanmiz[13] tasvirni o'rganishlarimiz davomida shunday xulosa – natijaga keldik.

Xulosa qilib aytganda, publitsistik matnlarda tasvirlanayotgan obyektga so'zlovchining munosabati kuchli namoyon bo'ladi. Subyektiv modallikning ustunligi bilan xarakterlanib, tasvirlanayotgan narsaga nisbatan berilgan munosabatga o'quvchini ishonishga undash, chaqirish mavjudligi bilan boshqa uslublardagi tasvirdan farq qiladi.

Publitsistik nutqqa xos mikromatnlarning vositasida ifodalanadigan ma'noni, o'rin-joy tasviri, tabiat voqea-hodisalarining bizga ko'rinib turgan tasviri ularning tavsifini berish bilan birga to'liq va tugallangan tarzda aks ettiriladi. Publitsistik maqola, ocherk qahramonlarining tashqi qiyofalari aks ettirilgan tasviriy mikromatnlarda esa shaxsning tashqi ko'rinishidagi eng muhim qirralari, asosiy belgilari ko'rsatilgach, o'ziga xos tabiati, xarakteridagi muhim jihatlari tasvirga qo'shib izohlanadi, to'ldiriladi. Demak, ommabop matnlardagi shaxs qiyofasi tasviri **tasvir – tavsif – emotsional (baho)** tarzidagi semantik munosabatlarini aks ettirib, polisemantik xarakterdagi mikromatnlarni yuzaga keltiradi.

Obyektiv borliqdagi har bir narsa-hodisa yoki uning turli belgilari haqidagi tushuncha, fikr inson ongida umumlashgan holda aks etadi. Bu tushuncha, fikr til orqali ma'lum bir so'z yoki so'z birikmasi, gap yoki gaplar birikmasi vositasida boshqalarga yetkaziladi. Natijada tilning kishilar o'rtasidagi aloqa-aralashuv quroli sifatidagi eng asosiy funksiyasi namoyon bo'ladi. Bu murakkab jarayonda nutqning yirik birligi hisoblangan gap nisbiy tugal fikr ifodalovchi vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga qaramay, nutq jarayonida tilning shunday yirik vositalari – yirik sintaktik butunliklar – gaplar guruhi vujudga keladiki, ular fikr ko'lamining kengligi, katta mundarijaga ega bo'lishi, har qanday holat yoki hodisa haqida xabar berish, ularni tasvirlab ko'rsatish; shaxs yoki predmetlar xususiyatlarini, voqea-hodisalarni tavsiflash, izohlash kabi mazmun qurshoviga egaligi jihatidan gapdan butunlay farq qiladi.

Publitsistik nutqda ham, xuddi badiiy uslubda bo'lgani kabi, tasviriy mikromatnlardan tashqari, izohlash munosabatini ifodalovchi mikromatnlarni ham juda ko'p qo'llaniladi. Izohlash munosabatini ifodalovchi mikromatnlarni nechta gap yoki komponentdan tashkil topishidan qat'iy nazar, ikki mazmuniy qismga ajraladi. Bu qismlardan biri – ikkinchisining umumiy mazmunini yoki uning tarkibidagi biror bo'lakning mazmunini izohlab keladi. Masalan,

«Mustaqillik yillarida mazkur nashriyot faoliyati tubdan o'zgardi, keng ko'lamlil modernizatsiya ishlari olib borildi. Eskirgan uskunalar o'miga zamonaviy chop etish, qolip tayyorlash, yelimlash, bo'yoq berish va qog'oz kesish kabi poligrafiya texnologiyalari o'rnatildi. Natijada matbaa mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'n ikki barobar oshdi».(Umid Yoqubov. Imtiyozlar Vatanimiz va xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi).

Misol tariqasida berilgan sintaktik butunlikdagi birinchi gap mikromatnning temasi – *mustaqillik yillarida mazkur nashriyot faoliyati tubdan o'zgarganligi, keng ko'lamlil modernizatsiya ishlari olib borilganligi* мавзуси изоҳи иккинчи murakkablashgan sodda gap, uchinchi sodda gaplar orqali to'ldirilib, aniqlab berilgan, ya'ni ikkala gap mikromatnning remasi sifatida mavzu haqidagi yangi ma'lumotni batafsil yoritib kelgan.

Ushbu mikromatn-misolimizdan ko'rinib turibdiki, izohli supersintaktik butunliklarni yuzaga keltirayotgan holat dastlab ularda «izohlanuvchi» va «izohlovchi» qismlarning mavjudligi hamda ularning o'zaro ma'no munosabatlariga kirishib, bir butun izohlash munosabatini aks ettiradigan

TILSHUNOSLIK

butunlik hosil qilganliklarida ko'rinadi. Izohlash munosabatini ifodalaydigan butunliklarda, avvalo, ushbu ikki qismlarning joylashish o'rinlari tahlil etiladi, so'ng qaysi qismning izohlanishi yoki qism tarkibidagi qaysi bo'lakning izohlanishi yoki ma'nosining oydinlashtirilishi haqida fikrlar bildiriladi.

Izohlash munosabatini ifodalovchi sintaktik butunlik tarkibidagi izohlanayotgan qism qaysi o'rinda kelishidan qat'iy nazar, ko'p hollarda birinchi gapning umumiy ma'nosi qolgan gaplar yordamida mazmuni konkretlashtiriladi yoki birinchi gap tarkibidagi ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, ba'zan hol funksiyasidagi bo'laklarning ma'nosi aniqlashtiriladi. Masalan:

«Kitobdagi ertak debochalaridan har birining mazmunini ochib beradigan ixchamgina naqlar teran ma'noga ega. Bu hikmatlar xalq tafakkurining qaymog'i, kimgadir achchiq dardu saboq, kimgadir andoza – ibrat. Qisqasi, xalq tilida qaynab pishgan hikmatlardir...» (O.Nazarov. Ertaklar olamiga daricha).

Dastlabki misolning birinchi gapi tarkibida «naqlar» so'zi – turdosh otlari bilan ifodalangan ega vazifasidagi bo'laklarning ma'nosi keyingi gaplar yordamida izohlab tushuntirilgan, ya'ni ushbu so'zlarning ma'nosi «naql» so'zining hikmatlar darajasida ko'rilishi, xalq tafakkurining boyishi sifatida aytilgan jumalardaberilgan hamda mazmun ushbu so'zning ma'nosini oydinlashtirishga xizmat qilgan.

Ko'pchilik hollarda atoqli ot bilan ifodalangan ega ham izohlanadi:

«Azima qo'shnimizning qizi. U o'n yoshda. Bir yildirki, sportning badiiy gimnastika turi bilan muntazam shug'ullanadi. Erta tongda men darvozaxonani supurib-sidirib yurganimda onasi bilan mashg'ulotlarga shoshib ketayotganini ko'rardim. To'g'risi juda havasim kelardi...»

(M.Madrahimova. Bo'lg'usi chempionlar mahallasi).

Sintaktik butunliklardagi birinchi gapda ifodalangan eganing keyingi qismlar yordamida izohlanishi hodisasini olim M.Abdupattoyev «...egalik subyekti (possetiv subyekt) bilan aloqador изох[1,16], deb nomlaydi».

Bundan tashqari publitsistik nutqda mavjudlik ma'nosi va unga aloqador ma'lumotni aks ettiruvchi mikromatnlar ham juda ko'p qo'llanishga ega. Masalan,

«**Tibbiyotda "immunitet" degan tushuncha bor. Agar inson a'zoi-badanida immunitet kuchli bo'lsa, ya'ni badan chiniqqan bo'lsa, har xil kasalliklar yuqmaydi. Mafkura sohasida ham shunday: ongimiz to'g'ri va foydali g'oyalar bilan sug'orilgan bo'lsa, unda yengil-yelpi tasavvurlarga joy qolmaydi.**» (Shuhrat Jabborov. Elni Vatan manfaati birlashtiradi).

Keltirilgan matbuot sahifalaridan olingan mikromatn uchta sodda gapdan iborat tarzda tuzilgan. Birinchi gap – **"immunitet" degan tushuncha bor – immunitetning mavjudligi haqidagi** mavzuni ifodalovchi qism hisoblanadi. Ushbu gapga ergashtiruvchi bog'lovchi (agar) yordamida bog'langan ikkinchi murakkab qo'shma gap, har ikkala gapga tartib yordamida bog'langan uchinchi qo'shma gap ikkalasi birgalikda **"immunitet" tushunchasi** to'g'risidagi yangi axborot beruvchi xabarni – mafkura sohasidagi **"immunitet" tushunchasi** haqidagi aniq tavsilotlarni to'ldirgan holda ifodalanib kelgan – rema vazifasini bajaragan.

Har uchala gap semantik va grammatik jihatdan o'zaro bog'lanib, bir umumiy mavzu: **mafkurada ham immunitetning bo'lishi zarurligi** мазмунини tibbiyotda mavjud bo'lgan **"immunitet" tushunchasidan** kelib chiqqan holda tavsiflab, tugallangan fikrni ifodalovchi publitsistik nutqqa xos mikromatnda yuzaga chiqqan.

XULOSA

Keltirilgan ko'plab lisoniy dalilardan shu narsa ayon bo'ladiki, publitsistik nutqqa xos mikromatnlar murakkab sintaktik strukturaga ega, adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilgan tarzda shakllantiriladi, ma'lum ijtimoiy-siyosiy voqelik, hodisa yoki jamiyatda o'z o'miga ega bo'lgan shaxslar hayoti, faoliyati to'g'risida ma'lumot ifodalabgina qolmay, semantik jihatdan turlicha tasvir ko'rinishlariga ega, o'zida izohlash, mavjudlik mazmun munosabatini ifodalovchi funksional va mazmunan boy uslubiy belgilari bilan ajralib turadigan matn turidir. Publitsistik nutqqa xos mikromatnlar o'zida tilning ikki funksiyasi: xabar ifodalash hamda ta'sir etish funksiyalarini bajarib, murakkab dolzarb muammolarni ko'tarib chiqishi, keng xalq ommasiga ijtimoiy-siyosiy jihatdan ta'sir etish, ularni ruhlantirish, ezgu amallarga undash, chaqirish singari g'oyalarni o'zida mujassam etib, ko'pqirrali muhim vazifalarni bajarish maqsadlarida qo'llaniladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдупаттоев М. Ўзбек матнида суперсинтактик бутунликлар: Филол. фан. ном. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1998.
Абдурахмонов Ф. Стилистик нормалар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1969, № 6, 51- б.
2. Абдусаидов А. Язык газеты и литературная норма: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1988.
3. Абдусаидов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ...дис. автореферати. – Тошкент, 2005.
4. Абдусаидов А. Газета жанрларининг тили ва услуби. – Самарқанд, 2001; Абдусаидов А. Матбуот тили маданияти. – Самарқанд, 2002; Абдусаидов А. Матбуотда адабий нормага риоя қилиш муаммолари. – Самарқанд, 2001; Абдусаидов А. Фразеологизмлар – матбуот тилида таъсирчан восита. – Самарқанд, 2001; Абдусаидов А. Журналистнинг тилдан фойдаланиш маҳорати. – Самарқанд, 2004 ва бошқалар.
5. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М., Изд-во АН СССР, 1963. с.6.
6. Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2010.
7. Кожина М.Н. К основаниям функциональной стилистики. – Пермь, 1968. с. 110.
8. Кожина М.Н. Стилистика русского языка, - М: Просвещение, 1988.
9. Курбанов Т.И. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Авторефер. дисс. ...канд. филол. наук. – Т., 1987.
10. Шомақсудов А. ва бошқалар. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
11. Қўнгулов Р. ва бошқалар. Нутқ маданияти ва услубият асослари. - Т.: 1992.
12. Khalilova M. Representation of pictorial microtexts in Uzbek artistic text. Texas Journal of Philology, Culture and History <https://zienjournals.com>. ISSN NO: 2770-8608 Date of Publication: 30-10-2023. – Pp.25-28. SJIF (2023) – 6.956 (№23).